

IQTISODIYOTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI : SERVIS KORXONALARINI RIVOJLANTIRISH MISOLIDA

Usmonov Inog‘omxo‘ja Shuxrat o‘g‘li

Kichik va o‘rta biznes rivojlanishini tahlil qilish, qo‘llab-quvvatlash va sohada davlat siyosatini muvofiqlashtirish departamenti Tadbirkorlar bilan hamkorlikda ishlash va loyihalarni amalga oshirish boshqarmasi Startap va innovatsion loyihalar ekotizimini hamda tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya. Mazkur maqola bugungi kundagi Respublikamiz oldida turgan dolzarb masalalarni yechimini topishga qaratilgan “raqamli tadbirkorlikni” rivojlantirish bo‘yicha konseptual yondashuvlarni, hamda servis korxonalariga oid xorij tajribasini o‘rganish va uni Respublikamiz korxonalariga mos jihatlaridan foydalanishning yangi yo‘nalishlarini taklif etish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida “raqamli tadbirkorlikni” rivojlantirish uchun taklif va tavsiyalar berishga bag‘ishlangan. Maqolada servis korxonalari uchun bulutli texnologiyalar, tahliliy ma’lumotlar bazalari va mobil ilovalar kabi innovatsion yechimlarning ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli tadbirkorlik, innovatsiya, virtual muhit, raqamli texnologiyalar

KIRISH

Raqamli iqtisodiyot - bu siyosiy- iqtisodiy, ilmiy-ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy munosabatlardagi aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo‘llash yordamida amalga oshiruvchi yangi tizim bo‘lib, raqamli iqtisodiyot sharoitida “raqamli tadbirkorlik” alohida ahamiyatga egadir. Bugungi global iqtisodiy taraqqiyot sharoitida raqamli texnologiyalarni joriy etish xizmat ko‘rsatish (servis) korxonalarining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli transformatsiya xizmat ko‘rsatish biznesiga quyidagi asosiy afzalliklarni taqdim etadi:

Operatsion xarajatlarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanish.

Mijozlarga tezkor va sifatli xizmat ko‘rsatish.

Biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va inson omilining ta’sirini kamaytirish.

Raqobatbardoshlikni oshirish va bozor segmentatsiyasini yaxshilash.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, raqamli texnologiyalardan foydalanish ushbu sohaning rivojlanish sur’atlarini tezlashtirish imkonini beradi. Jumladan, chakana savdo, transport va logistika, turizm,

mehmonxona biznesi va moliyaviy xizmatlar kabi tarmoqlarda raqamli echimlarning joriy etilishi bozor ishtirokchilari uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'kidlash zarurki, jahonda ko'zga ko'ringan xorijlik iqtisodchi olimlardan – A. Bxayd, Dj.K. Gel- breyt, U. Zalman, I.M. Kirsner, L. fon Mizes, F. Nayt, Dj. Stensill, F. Xayek, Y. Shumpeter, K.V. Ayxel, M.P. Voynarenko, G.K. Ginsa, P.Yu. Yerofe- yeva, M.Z. Ilchikova⁸², G.B. Kleyner, Ye.Ye. Kuzmina, L.P. Kuzmina, G.S. Merzlikina, A.F. Moskovseva, Ye.F. Cheberko L.S. Shaxovskaya va boshqalar, O'zbekistonda A.Abduganiev, Q.Abduraxmonov, X.Abulqosimov, Z.Xudoyberdiev, Z.Tolametova kabi olimlar tadbirkorlikni rivojlantirish masalalarini katta e'tibor bilan o'rganganlar. Raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli tadbirkorlik masalalari V.Y.Pestov, B.G. Preobrajenskiy, N.A. Serebryakova, T.O. Tolstix kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Raqamli iqtisodiyotni asosiy vazifalari⁸³:

- raqamli biznes va tadbirkorlikni yaratish;
- korxonalarni barqaror rivojlantirishga yordam beruvchi investitsiyalar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratish;
- innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi malakali kadrlar bilan ta'minlash.

Raqamli iqtisodiyot kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishida alohida ahamiyatga egadir.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tishimiz zarurki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni asosiy xususiyatlari quyidagilardan iboratdir;

texnologik va boshqaruvni egiluvchanligini ta'minlay olish.

Hozirgi raqamli iqtisodiyot asrida biznesni yuritish qoidalari ham o'zgarib borayotganligini kuzatish mumkin. An'anaviy iqtisodiyot sharoitida xaridorlar ishlab chiqaruvchi tomonidan qanday tovar yoki xizmatlar taklif etilsa shunga qanoat qilgan bo'lsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida esa iste'molchi bozorga o'z xohishini, takliflarini bayon etadi. Raqamli transformatsiyalar biznesmenga zamonaviy bozorga bog'lanish uchun o'z biznesini yaxshilashga majbur etadi. Raqamli iqtisodiyotda xarajatlarni qisqarishi natijasida ko'rsatilayotgan xizmatlarning qiymati arzonlashib boradi, daro - mad topishning yangi yo'nalishlarini keltirib chiqaradi.

Bundan tashqari, raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish natijasida, tovar va xizmat- lar global bozorlarga tezda taklif etiladi, mazkur tovar va xizmatlar xususida esa dunyo - ning

⁸² Erenberg R. Dj., Smit R.S. Sovremennaya ekonomika truda. Teoriya i gosudarstvennaya politika. – M.: MGU, 2016.

⁸³ Tolametova Z.A. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. – Toshkent: "Fan va texnolo- giya", 2017.400 b.

istalgan hududiga ma'lumotlar taqdim etiladi. Raqamli tadbirkorlik yangi biznes modellarni ishlab chiqilishini, yangi bozorlarga kirib borish imkoniyatlarini yaratadi.

Raqamli tadbirkorlar ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni kiritadilar va avtomatlashtirish jarayonini amalga oshiradilar. Raqamlashtirish va globallashtirish bir birlari bilan uzviy bog'liqdir.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkor ishlab chiqarishni yangidan yangi kombinatsiyalarni yaratadi, o'z faoliyatiga turli xildagi yangi texnologiyalarni tatbiq etadi. Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida tadbirkorlikni yangi ko'rinishlari, ya'ni raqamli tadbirkorlik, innovatsion tadbirkorlik, venchur tadbirkorligi kabilar rivojlanmoqda.

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida ishlab chiqarish jarayoniga innovatsiyalarni, zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etish iqtisodiyotning yangi bilimga yo'naltirilgan tarmoqlarini paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Iqtisodiyotning innovatsion sektorini, shuningdek "raqamli tadbirkorlikni" shakllanishi va rivojlanishi ishlab chiqaruvchilarni raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatini yaratadi⁸⁴.

NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida "raqamli tadbirkorlik" alohida ahamiyatga ega bo'lib, unda tadbirkorlik faoliyatida mukammal innovatsion qarorlarni qabul qilish muhimdir.

O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni shakllantirish jarayonida "raqamli tadbirkorlikni" rivojlantirish innovatsion jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir. Inno - vatsiya – yangilik kiritish ularni turli soha, tarmoqlarda qo'llashdir.

Mamlakatni jadal innovatsion rivojlantirish uchun ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlariga ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijalarini va nou-xau ishlanmalarini keng joriy etish, shuningdek ilmiy muassasalar va real iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari o'rtasida hamkorlikni o'rnatish zarurdir.

Raqamli texnologiyalar xizmat ko'rsatish korxonalari samaradorligini qanday oshiradi?

Biznes jarayonlarni avtomatlashtirish

Raqamli CRM (Customer Relationship Management) tizimlari mijozlar bilan aloqani yaxshilaydi.

ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlari korxonalar faoliyatini optimallashtirishga yordam beradi.

Xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish

Sun'iy intellekt yordamida xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish ish samaradorligini oshiradi.

Bulutli texnologiyalar orqali ma'lumotlarni tezkor boshqarish xarajatlarni kamaytiradi.

⁸⁴ Tolametova Z.A. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida mehnat bozorini rivojlanish yo'nalishlari 2014. Toshkent. "Iqtisodiyot" 305 b

XULOSA VA MUNOZARA

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini tarmoqlarini, jumladan tadbirkorlik faoliyatini innovatsion usulda rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan qo'yilgan eng dolzarb vazifalardan biridir. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish mamlakatimiz fuqarolarining turmush farovonligini oshirish, kambag'allikni kamaytirish, iqtisodiy taraqqiyotga erishishning muhim shartidir.

Bugungi kunda dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda aholi daromadlarining o'sishi birinchi navbatda tadbirkorlikda innovatsion jarayonlarning to'g'ri tashkil etilishi hamda "raqamli tadbirkorlikni" doimiy ravishda takomillashtirib borilayotgani bilan bog'liqdir.

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida Respublikamiz oldida turgan muhim vazifalardan biri jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni keng yo'lga qo'yishdir.

Bugungi kundagi asosiy vazifalardan biri tadbirkorlar o'rtasida sog'lom raqobatni ta'minlash orqali, narxlarini pasaytirish va jahon bozorida raqobatbardosh, eksportbop sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirishdir. Xalqaro tajribani o'rgangan holda monopoliya sohalariga xususiy sektor uchun yanada keng yo'l ochish, "raqamli tadbirkorlikni" rivojlantirish va shu orqali raqobat muhitini shakllantirish lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni xizmat ko'rsatish korxonalarida qo'llash samaradorlikni sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Asosiy xulosalar:

Xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish mijozlarga tezkor va sifatli xizmat ko'rsatish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar biznes jarayonlarini yanada samarali tashkil qilishga yordam beradi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatish korxonalarida raqamli texnologiyalarni kengjoriy etish bo'yicha davlat dasturlari va biznes hamkorliklari rivojlantirilishi lozim.

Kelajakda xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli transformatsiyasini tezlashtirish, sun'iy intellekt va IoT (Internet of Things) texnologiyalaridan keng foydalanish orqali samaradorlikni yanada oshirish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent, 2016. 56-b.

2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekiston, 2017. 488-b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947- son farmoni.
4. Erenberg R. Dj., Smit R.S. Sovremennaya ekonomika truda. Teoriya i gosudarstvennaya politika. – M.: MGU, 2016.
5. Tolametova Z.A. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida mehnat bozorini rivojlanish yo‘nalishlari 2014. Toshkent . “Iqtisodiyot” 305 b
6. Tolametova Z.A. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2017. 400 b.
7. Xazratqulov, O. K. (2024). THE MECHANISM OF FORMATION OF THE NATIONAL MODEL OF TOURISM. Modern Science and Research, 3(1), 123-129.
8. Рахимбердиева, З. А., & Артикова, Д. М. (2020). Шагазатова Барно Хабибуллаевна. EDITOR COORDINATOR, 468.